

BEHBUDIY ASARLARIDA VATAN TAQDIRI

Qudratova Sevinch Sanjar qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti ommaviy huquq fakulteti 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Raxmonova Dildora Mirzakarimovna

*Toshkent davlat yuridik universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari
bo'yicha falsafa doktori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatining faol yo'lboschchisi hisoblangan Mahmudxo'ja Behbudiyning millat va davlat ozodligi uchun qilgan harakatlari, olib borgan islohotlari tahlil qilingan. Uning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy g'oyalarining hozirgi kun hayoti bilan qay darajada bog'liqligi o'rganilgan hamda ma'rifatparvar faoliyatining yoshlar uchun o'rnak bo'lishga arziydigan jihatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: milliy uyg'onish, davlat tushunchasi, milliy g'urur, idora usullari, siyosiy bosqich, Oliy sud palatasi.

Yer yuzidagi har bir millat doim taraqqiyot sari harakat qiladi, rivojlanishga intiladi. O'zligini anglab yetgan, kuchli ma'naviyatga ega xalq uchun tobelikdan yomoni yo'q. Ular uchun yurt taqdiri, sha'ni, yoshlarning kelajagi har doim muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Biroq barcha zamonlarda ham o'zgarishlarni xushlamaydigan kishilar jamiyatda uchragan. Bu hol ayniqsa Chor Rossiyasi va Sho'rolar davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. XIX asr oxiri – XX asrlardagi qaramlik o'zbek xalqini har tomonlama rivojlanishdan cheklab qo'ydi. Yoshlar faqat Ittifoq ruxsat bergen ilmlarnigina o'rgana olishdi, yurtni boshqarib turgan xonlarning esa nomi "xon" edi, xolos. Amalda o'z vakolatlaridan foydalangan holda, jamiyatning ijtimoiy ahvoldidan kelib chiqib qarorlar qabul qilishga podsho hukumati yetarlicha cheklolvar o'rnatgan edi. Bu kabi holatlar yurt ziylolarini harakatga chorladi. Bir qator ma'rifatparvarlar tashabbuslar bilan chiqqa boshlashdi. Ularni biz bugungi kunda jadidlar sifatida bilamiz. XX asr 1-choragini jadidchilik harakatining eng rivojlangan davri deya olamiz.

Milliy uyg'onish harakatlarini Mahmudxo'ja Behbudi faoliyatisiz tasavvur etish qiyin. U bir nechta taraqqiyatparvarlar bilan birgalikda jadidchilik harakatining eng oldi saflarida faol harakat qildi. Behbudi nafaqat ijtimoiy sohada, balki madaniy va siyosiy sohalarda ham bir nechta islohotlar tashabbuskori sifatida tanilgan. Har bir fikri, har bir harakati vatan ozodligi, uning istiqboliga qaratilgan. Maqolalarida davlatning rivojiga to'siq bo'layotgan, qaramlikdan qutulishga xalal berayotgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni yaqqol yoritib bergan. O'sha davr siyosati bilan solishtiradigan bo'lsak, ommaga bu kabi mazmundagi fikrlar bilan chiqish anchagina

xavfli edi. Shu sababli ham Behbudiyning zamondoshlari uni bosh islohotchi, mustaqil jamiyat g‘oyasining asoschisi sifatida tan olishgan. Xususan, XX asr mashhur davlat arbobi Fayzulla Xo‘jayev Behbudiylar haqida shunday deydi: “Mahmudxo‘ja Behbudiylar siyosatshunos va publitsist, adib va pedagog, noshir va jurnalist sifatida keng qamrovli faoliyat olib bordi. Har bir ishda bosh mezon millat va milliyat masalalari bo‘ldi”[1]. Demak, Behbudiylar qanday faoliyat bilan shug‘ullanmasin, uning istagi va bosh g‘oyasi vatan va millat ozodligi bo‘lib qolgan. Uning fikricha, el-yurt, millat doimo eng muqaddas tushunchalar sifatida qadrlanmog‘i kerak. Milliy tarixni puxta o‘rganish, u bilan faxrlanish va hurmat qilish, uni kelajak avlodga o‘rgatish millatning asosiy vazifalaridan biri bo‘lishi lozim. Chunki o‘z tarixini bilgan insongina o‘zligini chuqranglaydi, unda milliy g‘urur tushunchasi shakllanadi va o‘z yurtining, xalqining o‘zga mamlakatlarga tobe bo‘lishini istamaydi.

Turkiston jadidlarini birlashtirishda “Markaziy Osiyo jadidlarining otasi” deb tan olingan Mahmudxo‘ja Behbudiylar 1875-yilning 19-yanvarida Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida tug‘ilgan. Dastlab Samarqand, so‘ngra Buxoro madrasalarida tahsil olib, imom-xatib, qozi, keyin muftiy darajasiga ko‘tarilgan[2].

Behbudiyning jadidchilik sohasidagi faoliyati bilan tanishishdan oldin “Ma’rifatparvar bobomiz vatan deganda nimani tushungan?” degan savolga javob berishni lozim topdik. Har bir davlat “davlat” degan nomga erishish uchun bir necha yillik tarixni bosib o‘tishi kerak. Chunki har qanday hududning davlat bo‘lib shakllanish jarayoni ma’lum vaqt va ba’zi jarayonlardan o‘tishni talab qiladi. Behbudiylar ham vatan tushunchasini eng avvalo tarix bilan bog‘laydi. U tarix insonlar ma’naviyatini yuksaltiruvchi asosiy bilimlardan biri ekanligini ta’kidlaydi. Chunki xalq o‘z tarixini bilmasdan turib, munosib tarzda hayot kechira olmaydi. O‘tmishda bo‘lib o‘tgan voqealarni o‘rganish orqali ibrat oladi, yurtning rivojlanish yoki tanazzuli sabablarini o‘rganib, yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslikka harakat qiladi. Ma’rifatparvar Abdurauf Fitrat ham o‘zining “Muxtasar islom tarixi” asarida tarixni quyidagicha ta’riflaydi: “Tarix millatlarning o‘tmishini, taraqqiyotini hamda tanazzulining sabablarini o‘rgatuvchi fandir”. Demak, tarixga har bir xalq hayotining yo‘l-yo‘rig‘i sifatida qarash mumkin. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, vatan va tarix tushunchalari chambarchas bog‘liq. Xoh buyuk bo‘lsin, xoh qonli, o‘z o‘tmishiga ega yurtgina taraqqiyotga erisha oladi. Haqqoniy tarixdan xabardor bo‘lmadan turib, hech bir millat o‘z ahvolini tahqiq eta olmaydi[3]. Vatan deya yonib-kuyishdan maqsad ham uning taraqqiyotini ta’minalash, kamchiliklarni bartaraf etish, aslida.

Dunyoga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayrim davlatlarning nafaqat madaniyatida, balki davlat boshqaruvi tizimida ham ba’zi tarixiy an‘analar saqlanib qolganligiga guvoh bo‘lamiz. Buyuk Britaniyada hamon toj kiyish an‘anasi saqlanib qolgan. Garchi hukumatni boshqarish bosh vazir va parlament qo‘lida bo‘lsa ham, taxt eng yoshi katta malika yoki shahzodaga o‘tadi. Uning boshqaruvi esa parlament

tomonidan cheklangan. Tarixda qirollar cheklanmagan huquqqa egalik qilgan bo‘lishi mumkin, yillar o‘tib esa bu boshqaruv usulining bir qismigina an’ana sifatida saqlanib qolgan. Yana bir misol bu – samuraylar. Bu so‘zni eshitishimiz bilan ko‘z o‘ngimizda Yaponiya davlati gavdalanadi. Ushbu harbiy lavozim hozir mavjud bo‘lmasa-da, ko‘pchilikka yapon milliy serial va kinolari orqali tanish. Bundan kelib chiqadiki, tarixiy epizodlar orqali ham dunyoga tanilish mumkin. Behbudiy ham ushbu jihatni hisobga olgani, tabiiy. Mahmudxo‘ja Behbudiyning va barcha Turkiston jadidlarining ustozи Ismoil G‘aspirali ham “Tarjimon” gazetasi orqali millatning shavkatli tarixini tanitishga harakat qilgan.

Faqatgina buyuk tarix bilan rivojlanishga erishib bo‘lmasligini bilgan Behbudiy yoshlarga bir nechta maslahatlar beradi. Ulardan asosiysi bu til o‘rganish. Uning uchun til masalasi hamisha birinchi o‘rinda turgan, millatning taraqqiyoti uchun bir nechta til bilishni shart deb hisoblagan. “Oyna” jurnalining 1913-yil avgustdagи sonida ham “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasi orqali til o‘rganishga doir bir nechta fikrlarni ilgari surgan. Bundan tashqari, Behbudiyning fikriga ko‘ra, taraqqiyot yo‘lidagi eng muhim qadamlardan biri yoshlar va keksa avlod vakillarining birlashuvdir. Chunki yoshlarda kuch-quvvat, g‘ayrat, keksalarda esa tajriba bor. Bular bir-birini to‘ldirib turuvchi kuch hisoblanadi. U yoshlarni shoshqaloqlik illatidan qutulishga, qaror qabul qilishda doim ilmiy asoslarga tayanishga chaqirgan.

Behbudiyning siyosiy, ma’naviy, axloqiy sifatlari shakllanishida sayohatning, dunyo kezishning ham o‘rni beqiyos bo‘lgan. Jadid bu orqali mustaqil davlatlarning demokratik boshqaruv usullarini, ilmini, urf-odatlarini o‘rganishga, tahlil qilishga harakat qilgan.

Behbudiyning asl maqsadi xalqni ma’rifatli qilish orqali yurt ozodligini ta’minalash ekan, u bu yo‘lda teatrning o‘rni beqiyos deb bilgan. Turkistondagi birinchi o‘zbek milliy teatri asoschisi aynan Mahmudxo‘ja Behbudiy hisoblanadi. Unda ilk namoyish etilgan asar ham uning “Padarkush” pyesasi edi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida: “Qachonki milliy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lgan teatr san’ati xususida so‘z borar ekan, buyuk ma’rifatparvar Mahmudxo‘ja Behbudiyning: “Teatr bu ibratxonadir”, deb aytgan fikrini eslash o‘rinlidir”, - deb yozadi [4].

Behbudiy millatning bilimli bo‘lishida kutubxonalarining ham o‘rni beqiyos deb hisoblagan. Uning tashabbusi bilan “Behbudiya kutubxonasi” tashkil qilingan. Samarqand gazetasining “Xorijiya xabarlari” ruknida shunday yoziladi: “AQSHda kundalik gazetalarning soni 2472 ta, haftalik gazetalar 16269 ta, o‘n besh kunlik va oylik jurnallar 276 ta chop etiladi. Eng kam o‘qiladigan gazetaning mushtariysi 100000 kishidur”. Ushbu gazeta muharriri Behbudiyning fikriga qo‘shilgan holda, vaziyatga

quyidagicha sharh beradi: “Biz Turkiston nufusi, onlardan sakkiz barobar oz bo‘lsada, ilm borasida uch ming daf‘a ozdurmiz. Biz dunyo ahdidan, biz turkistonlilar beilm va vahshiydurmi”[5]. Aslida, xalqning ma’naviyati uning soniga bog‘liq emas. Keng dunyoqarash, shaxsiy fikr o‘z-o‘zidan shakllanib qolmaydi. Buning uchun o‘qish, o‘rganish, fikrlash, o‘rganganlarini tahlil qilish talab etiladi.

Behbudiy ijtimoiy hayot bilan birligida siyosiy sohaga ham jiddiy e’tibor qaratgan. U chuqur o‘rganishlar natijasida zamonasidagi mavjud idora usullarini uch guruhga bo‘ladi:

- 1) idorai mustaqalla (davlat boshqaruving monarxiya ko‘rinishi);
- 2) idorai mashruta (konstitutsiyaviy parlament hokimiyati)
- 3) idorai jumhuriyat (respublika).

Birinchi usulda sultanat egasining qarashlari ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. Ikkinchisida esa sultanat egasi parlament xohishini inobatga olgan holda ish yuritadi. Uchinchi boshqaruvin usulini Behbudiy shunday ta’riflaydi: “Aksar fuqarosi ahli ilm bo‘lib, bu ahli donish aholini saylagan vakillari, ya’ni hukumatg‘a yetti yilg‘acha o‘z mamlakat va hukumatlarini boshqarmog‘i uchun o‘z oralaridan bir nafar donishmand odamni boshliq saylaydilarki, “raisi jumhuriyat”, “sadrnishini millat”, “prezident” atalur”[6]. Bu fikrlar bildirilganiga yuz yildan oshdi, dunyoning respublika boshqaruvin tizimiga ega davlatlarining aksariyatida prezidentning vakolat muddati 7 yilni tashkil qiladi. O‘zbekistonda ham 2023-yilning 30-aprelida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga ko‘ra, prezidentning vakolat muddati 5 yildan 7 yilga o‘zgartirildi.

Behbudiy faoliyatini o‘rganar ekanmiz, uning nafaqat o‘z millati, balki o‘zga din vakillari hayotiga ham befarq bo‘lmaganligiga guvoh bo‘lamiz. Ma’rifatparvarlik harakatlari siyosiy bosqichga ko‘tarilgach, Behbudiy Rus hukumatidan Turkistonda yashayotgan yahudiy va musulmonlar uchun bir xil kuchga ega bo‘lgan, hammaning manfaatini hisobga oladigan, adolatli qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Sababi millatlararo hamdo‘slik, totuvlik bo‘lmasa, yurt ravnaqiga erishib bo‘lmaydi. O‘zbekistonning hozirgi tanlagen rivojlanish yo‘li ham chet mamlakatlar bilan hamkorlikni, strategik sheriklikni mustahkamlash daturlarini o‘z ichiga oladi. Demak, davlatimiz tarixida ham islohotlar yetakchilari yaxshi qo‘sningchilik munosabatlariiga urg‘u berishgan.

Behbudiy harbiy sohaga ham alohida e’tibor qaratgan. Turkiston o‘z armiyasiga ega bo‘lishi lozim, ushbu hududda askarlikka quvvati yetadigan aholi yetarlicha, deb hisoblagan. Bundan tashqari, jadid va uning safdoshlari 18 yoshga to‘limgan fuqarolarni mehnatga yollashni ta’qiqlash, 8 soatlik ish kunini belgilash kabi talablarni ham ilgari surishgan. Hozirgi mehnat qonunchiligidagi ham aynan mana shu holatlarga alohida e’tibor qaratilgan va mehnat munosabatlari bilan bog‘liq vaziyatlar O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi yordamida tartibga solinadi.

Behbudi o'lkadagi sud tizimini ham tubdan isloh kelish kerakligini ta'kidlagan. U Oliy sud palatasi tuzish taklifini ilgari surgan. Uning fikricha, Oliy sud appellatsiya komissiyalaridan tashkil topishi va sud natijalaridan norozi bo'lgan fuqarolarning shikoyatlarini ko'rib chiqishi lozim edi. Hozirgi O'zbekiston qonunchiligi bilan solishtiradigan bo'lsak, Oliy sud vakolatlari O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonunida belgilab qo'yilgan. Ushbu qonunning 18-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi quyi sudlarning faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega. O'z vakolatlari doirasida ishlarni birinchi, appellatsiya va cassatsiya instansiyasi sudi sifatida, shu jumladan cassatsiya instansiyasi sudida takroran, shuningdek yangi ochilgan holatlar bo'yicha ko'rib chiqadi [7].

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mahmudxo'ja Behbudiyning qirq to'rt yillik qisqa umri davomida millatning, yurting yorqin kelajagi uchun qilgan sa'y-harakatlari besamar ketmadi. Oradan bir asr o'tgan bo'lsa-da uning fikrlari hamon yoshlar uchun dasturulamal bo'lib xizmat qilmoqda. Jadid bobomizning milliy davlatchiligidan ravnayiqiga qo'shgan hissasi esa beqiyosdir. U hayoti davomida ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilangina cheklanib qolmadidi. Ilm va ijod bilan shug'ullanish natijasida o'zidan ulkan meros ham qoldirdi. Uning asarlari bugungi kunda ham boshqaruv, iqtisodiyot, huquq, pedagogika sohalarida muhim ahamiyatga ega. XX asr o'zbek millati va davlati yo'lboshchisi, ko'plab islohotlar asoschisi, ma'rifat, ozodlik yo'lida faol harakat olib borgan allomaning faoliyati bugungi yoshlar uchun o'rnak olishga arziydigan matabdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- [1] Qosimov B. Karvonboshi. – Mahmudxo'ja Behbudi. Tanlangan asarlar. – T.: "Ma'naviyat", 2006, 5-bet.
- [2] Tillaboyev S, Zamonov A. – O'zbekiston tarixi.9-sinf darslik. – T.: "Toshkent", 2019, 94-bet.
- [3] Jabborov N. Ma'rifat nadir. – T.: "Ma'naviyat", 31-bet.
- [4] Tillaboyev S, Zamonov A. – O'zbekiston tarixi.9-sinf darslik. – T.: "Toshkent", 2019, 146-bet.
- [5] O.A.G'afforov, M.N.Rahimjonov. "Mahmudxo'ja Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy va madaniy qarashlari". Global dunyoda ilm-fan va ta'limdagi innovatsion rivojlanishning zamonaviy trendlari, 15-dekabr 2022-yil
- [6] Shonazarov J. "Behbudi va uning davlatchilik g'oyasi". Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2024
- [7] <http://lex.uz//docs/-5534923> Sudlar to'g'risida